




filologiya fanlari doktori, professor
Hamid G'ulomovich Ne'matov
tavalludining 80 yilligiga bag'ishlanadi



FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

MATERIALLARI



2021-yil 22-noyabr

Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L
Publishing group

str. A.Russo 15, of. 61, Chisinau-2068, Republic of Moldova Europe

Printed at: see last page

ISBN: 978-620-0-62760-5

Copyright © Guli Tairova

Copyright © 2021 Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the
OmniScriptum S.R.L Publishing group

FOR AUTHOR USE ONLY

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH DEPARTAMENTI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI
BUXORO VILOYATI PEDAGOG XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISH
VA QAYTA TAYYORLASH INSTITUTI**

**“FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM”
mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman
materiallari**

(filologiya fanlari doktori, professor Hamid G‘ulomovich Ne‘matov
tavalludining 80 yilligiga bag`ishlanadi)

**«ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ПРОБЛЕМА И
РЕШЕНИЕ»**

**материалы международной научной конференции
(доктор филологических наук, профессор Хамид Гуломович
Негматов
посвящается к 80-летию со дня рождения)**

**“PHILOLOGICAL RESEARCH: PROBLEM AND SOLUTION”
international scientific conference**

(doctor of Philology, Professor Hamid Gulomovich Negmatov
dedicated to the 80th birthday anniversary)

Buxoro – 22-noyabr, 2021-yil

Anjuman O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 16-iyundagi oliy ta‘lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi, “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi hamda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlariga muvofiq tashkil etilmoqda.

Anjumanning maqsadi: filologiya fanlari doktori, professor Hamid G‘ulomovich Ne‘matov tavalludining 80 yilligini keng nishonlash va o‘zbek tilshunosligi XXI asr birinchi choragida, filologiyada o‘z yechimini kutayotgan dolzarb masalalar, til ta‘limida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o‘zbek va xorijiy tillarni qiyosiy o‘rganish masalalarini ta‘limning yetakchi mutaxassislar bilan tajriba almashish hamda ushbu sohadagi so‘nggi tadqiqot usullarini ommalashtirishdan iborat.

DASTURIY QO‘MITA

Xamidov O. X. – BuxDU rektori, i. f. doktori, professor, rais;

Qahhorov O.S. – BuxDU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, i.f.doktori, rais o‘rinbosari;

Jamoliddinova O. – Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi maslahatchisi, a‘zo;

Jumayev R.G‘. – BuxDU o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori, i.f.doktori (PhD), dotsent, a‘zo;

Qahhorov S.Q. – BuxDU kasaba uyushmasi raisi, p.f.doktori, professor, a‘zo;

Rajabov D.Z. – BuxDU filologiya fakulteti dekani, f.f.doktori (DSc), dotsent, a‘zo;

O‘rayeva D.S. – BuxDU filologiya fakulteti professori, f.f.doktori, a‘zo;

Abuzalova M.Q. – BuxDU filologiya fakulteti professori, f.f.doktori, a‘zo;

Axmedov A.R. – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri, f.f.nomzodi, dotsent, a‘zo;

Eshonqulov H.P. – BuxDU o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, f.f.doktori, dotsent, a‘zo;

Yuldasheva D.N. – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini professori, p.f.nomzodi, a‘zo;

Nazarova S.A. – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti, f.f.nomzodi, a‘zo.

Toirova G.I. – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti, f.f.f.doktori (PhD), a‘zo;

TASHKILY QO‘MITA

Axmedov A.R. – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri, f.f.nomzodi, dotsent, rais;

Toirova G.I. – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti, f.f.f.doktori (PhD), rais o‘rinbosari;

Safarov A.K. – Buxoro viloyati PXMOQTI rektori, p.f.nomzodi, dotsent, a‘zo;

Mengliyev B.R. – Toshkent DO‘TAU professori, f.f.doktori, a‘zo;

Ne‘matova G.H. – Buxoro viloyati PXMOQTI prorektori, f.f.nomzodi, dotsent, a‘zo;

Hamroyeva Sh.M. – Toshkent DO‘TAU doktoranti, f.f.doktori (DSc), dotsent, a‘zo;

Qilichev B.E. – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti, f.f.nomzodi, a‘zo;

Ne‘matova L.H. – BuxDU rus tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, f.f.nomzodi, dotsent, a‘zo;

Asadov T.H. – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti, f.f.nomzodi, a‘zo;

Hojiyeva M.Y. – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi, a‘zo.

Yoqubova Sh. – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi, a‘zo.

Mas‘ul muharrir:

Axmedov A.R. – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Abuzalova M.Q. – filologiya fanlari doktori, professor

Yuldasheva D.N. – pedagogika fanlari nomzodi, professor

Toirova G.I. – f.f.f.doktori (PhD), dotsent

yuzaga keltirishdagi ahamiyati oydinlashtirilishi kabi masalalar o'rganilishini kutub turgan jihatlardir.

Badiiy asarning estetik qiymati, ta'sirchanligi, albatta, lisoniy vositalarga, tilning ifoda imkoniyatiga va ijodkorning tildan foydalanish malakasiga bog'liq. Bugungi kunda tilni sistem, pragmatik, lingvomadaniy, lingvopoetik jihatdan o'rganish ustunlik qilsa-da, har bir til o'zining tadqiq ehtiyojiga ko'ra chuqur tahlil qilinishni taqozo qiladi. Keyingi yillarda olib borilgan tilshunoslikka doir bir qator tadqiqotlar o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga qaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aristotel. Poetika.-Toshkent, 1980.-B.41.
2. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. - М., 1984.-С.69.
3. Mengliyev B.R. Hozirgi o'zbek adabiyoti. –Toshkent, 2010. –B. 41.

ТИЛ КОРПУСЛАРИ БИРЛИКЛАРИГА ИШЛОВ БЕРИШДА МОРФОАНАЛИЗАТОР БИРЛИКЛАРИДАН ФойДАЛАНИШ DOI: 10.53885/edinres.2021.86.89.088

Хамроева Шахло Миржоновна,
*Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти
университети доценти,
филология фанлари доктори (DSc)*
hamroyeva81@mail.ru

Дилрабо Элова Қудратиллаевна
*Алишер Навоий номидаги
Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти
университети ўқитувчиси*
okku83@mail.ru

Аннотация. Ушбу мақолада тил корпуслари бирликларига ишлов беришда морфоанализатор бирликларидан фойдаланиш усуллари, морфоанализаторнинг стемминг ва лемматизация компонентларини тил корпуси бирликларига ишлов беришда – сўзшакл, сўзшакл ўзаги, яъни стем ва леммани аниқлаш жараёнларида қўллаш хусусида сўз юритилган.

Калит сўзлар: морфологик анализатор, тил корпуси, стемминг, парсинг, лемматизация.

Кириш. Жаҳон компьютер лингвистикасида автоматик морфоанализ 1950-йиллардан бошлаб ўрганилган, табиий тилга ишлов бериш, математик лингвистика ва машина таржимаси амалиётида қўллаш ҳаракатлари бошланган. Шундан буён тадқиқот ва амалий ишланмалар натижасида бир қанча иловалар ишлаб чиқилган: ахборот-қидирув тизимида фаол қўлланивчи Портер стеммери, орфографик корректор (имло муҳаррири) шулар жумласидан [5; 67-68]. Табиий тилга компьютерда қайта ишлов беришнинг дастлабки босқичи деганда морфологик таҳлилни амалга ошириш; морфоанализ модули эса матнни таҳлил қилиш дастурлари компонентлари назарда тутилади. Бундай таҳлил воситаларидан тил корпуси бирликларига ишлов беришда ҳам фойдаланиш мумкин.

Асосий қисм. Туркий тилларнинг морфологик анализаторларини ишлаб чиқиш ўтган асрнинг 60-йилларида бошланган. Дастлабки анализаторларнинг асосий хусусияти шунда эдики, улар айнан битта тилга мўлжалланмаган: бир морфоанализаторни бошқа тилга мослаштириш мумкин. Чунки дастурга морфотактик қоидалар бириктирилган, қоидалар тизими тилнинг лексикон ҳамда аффиксал морфемалари билан тўлдирилса, бошқа тилнинг анализатори сифатида ишлатиш имкони пайдо бўлади; бошқа тилнинг анализаторини яратиш учун алоҳида кодлар ёзишга зарурат мавжуд эмас. Ўшандан ҳозирги даврга қадар технологиялар ўзгарди, туркий тилларнинг универсал морфологик анализаторлари яратилди, луғатлар ҳажми, маълумотни қайта ишлаш тезлиги ошди [5; 71-73]. Туркий

тиллар морфоанализаторини ишлаб чиқиш ҳаракати бошланганига 50 йилдан ошганига қарамасдан, бу соҳа ўсиш ҳалигача туркий тилларнинг барчасида турли даражада. Татар, бошқирд, қозоқ, чуваш, турк, хакас тиллари ҳамда универсал морфологик анализатор ҳақидаги ишлар фикримизни далиллайди [1; 2; 4; 6; 7;].

Адабиётларда автоматик таҳлилнинг стемминг (1), сўзшаклнинг луғат асосидаги таҳлили (2), мантиқий ёндашув асосидаги таҳлил (3), жадвал асосида, луғатсиз таҳлил каби турлари кўрсатилади. Мутахассислар автоматик морфологик таҳлил стемматизация (1), лемматизация (2), граммемалаш (3) каби асосий блоклардан ташкил топишини уқтиришади [5; 67-68].

Стемматизация (ёки *стемминг* инг. *stemming* сўзидан) – қидирилиётган сўзнинг асосини топиш жараёни бўлиб, бунда ҳар қандай стем (сўзшакл асоси) қидириляётган сўзшаклнинг грамматик асосига тенг бўлиши шарт эмас: таҳлил жараёнида бир парадигмага мансуб сўзшаклларнинг битта стем сифатида кўрсатилиши маълум стем(асос)ни аниқлаш учун етарли. Стемминг, асосан, фойдаланувчининг сўрови бўйича изланишни кенгайтириш мақсадида қидирув тизимлари учун қўлланади, матнни меъёрлаштириш жараёни қисми ҳисобланади. Сўз асосини топишнинг муайян усули стемминг алгоритми, унинг амалга оширилиши, яъни дастурнинг ўзи стеммер дейлади”.

Демак, стем – бир парадигмага мансуб сўзшаклларнинг максимал умумий қисми. Масалан, татар тилидаги *киталар* ва *китабим* сўзшаклларининг умумий асоси (стем) – *кита*. Ўзбек тилидаги *билагим*, *билакка* ва *билакни* сўзшаклларининг умумий асоси (стем) – *билак*; *нонни*, *нонлар*, *ноним*, *нондан* сўзшаклларининг умумий асоси (стем) – *нон*. Кўриниб турибдики, стем грамматик асосга тенг бўлиши ҳам, тенг бўлмаслиги ҳам мумкин.

Лемматизация сўзшаклни леммага келтириш жараёни бўлса, лемма сўзнинг асосий (луғат бериладиган) шакли, лексема ҳисобланади. Лемматизация жараёни кўпроқ флексив тиллар учун (масалан, рус тили) аҳамиятли, чунки агглютинатив тилларда (жумладан, ўзбек тили), одатда, сўзнинг “стем”и лексемага тенг бўлади. Фақат флексияга учраган сўзшаклда лемма ва стемнинг мос келмаслик ҳолатлари кузатилади. Рус тилида от сўз туркумига мансуб лемма – сўзшаклнинг бирликдаги именительный падеж шакли. Масалан, *столов* сўзшаклининг лемма кўриниши – *стол*. Сифатнинг лемма кўриниши – бирлик, “мужской” роддаги шакли: *зеленых* сўзшаклининг леммаси – *зеленый* [8; 34-36].

Ўзбек тилида от, олмош учун лемма бирлик сон, бош келишидаги шакл: *бола*, *мен*; сифатнинг оддий даража кўриниши – *катта*, *ёруғ*; равиш, сон ҳамда ёрдамчи сўзларнинг леммаси уларнинг луғатдаги шаклига тенг. Туркий тилларда, жумладан, ўзбек тилида ҳам феъл сўз туркумининг лемма шакли – луғатда қўлланадиган “ноаниқ шакл”нинг *-моқ* қўшимчасисиз шакли: *ўтирмоқ*, *яратмоқ*, *айтмоқ*, *югурмоқ* лексемаларининг леммаси *ўтир*, *ярат*, *айт*, *югур* шаклига эга бўлади.

Хулоса сифатида шуни айтиш жоизки, морфоанализаторнинг стемминг ва лемматизация компонентларини тил корпуси бирликларига ишлов беришда – сўзшакл, сўзшакл ўзаги, яъни стем ва леммани аниқлаш жараёнларида қўллаш мумкин. Бунда ўзбек тилининг морфологик анализатори тил корпусини теглаш дастури сифатида ишлайди.

АДАБИЁТЛАР

1. Халитова Н.А., Закирова Р.А., Гимадудтинова Р.У. Морфологический анализ при машинном переводе с татарского языка на русский / Вероятностные методы и кибернетика I, Сборник работ НИИММим. Н. Г. Чеботарева при Казанском университете, Учен. зап. Казан.ун-та, 122, № 4, Изд-во Казанского ун-та, Казань, 1962. – С. 98-105.;

2. Махмудов М. Разработка системы формального морфологического анализа тюркской словоформы: на материале азербайджанского языка: диссертация канд. филол. наук: – Баку, 1982.

3. Проблемы моделирования тюркской морфологии: (Аспект порождения кирг. имен. словоформы) / Т. Садыков; АН КиргССР, Ин-тяз. и лит. – Фрунзе: Илим, 1987. – 120 с.

4. Сулейманов Д.Ш., Гильмуллин А.А., Гильмуллин Р.А. Базаморфотактических правил для татарского глагола как основа двухуровневого морфологического анализатора // Сборник трудов Международного семинара «Диалог». – Казань, 1998. – С. 597-609.

5. Сулейманов Д.Ш., Гатиатуллин А.Р. Структурно-функциональная компьютерная модель татарских морфем. – Казань: Фэн, 2003. – 220 с.

6. Сиразитдинов З.А. Алгоритмическая грамматика словоизменения башкирского языка // <http://mfbl.ru/bashdb/algram/algram.htm>;

7. Орехов Б.В., Слободян Е.А. Проблемы автоматической морфологии агглютинативных языков и парсер башкирского языка // Информационные технологии и письменное наследие: материалы международной научной конференции (Уфа, 28-31 октября 2010 г.) /отв. ред. В.А.Баранов. – Уфа; Ижевск: Вагант, 2010. – С. 167-171.

8. Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. – Бухоро, 2018. – 250 б. – Б. 13-137.

ИНГЛИЗ ШЕЪРИЯТИДА ЁЛҒИЗЛИК ҲОЛАТИНИ БАДИИЙ ЁРИТИШДА РУҲИЙ ТАҲЛИЛ ТАМОЙИЛЛАРИ

DOI: 10.53885/edinres.2021.74.84.087

М.Р. Киличева

БухДУ Инглиз адабиёти ва стилистикаси кафедраси ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада инглиз назмида ёлғизликнинг бадиий талқини ҳамда руҳий таҳлил тамойиллари хусусида сўз боради. К.Менсфилд, Р. Жо, Л. Вайн каби инглиз шоирлари ижодида ёлғизлик ва танҳолик сарлавҳаси билан яратилган шеърлар таҳлилга тортилди. Ёлғизликнинг образли характеристикасини яратишда муаллифлар кўпинча метафорадан, пейзаж тасвири, фасллар, тун, қоронғулик, ҳарорат каби табиий ҳодисалар, ранг, таъм хусусиятлари билан боғлиқ рамзлардан фойдаланиши кузатилди.

Калит сўзлар: ёлғизлик, танҳолик, руҳий таҳлил, антитеза, метафора, образли характеристика

Инглиз шоираси Кетрин Менсфилд шеъриятида ёлғизлик ўзгача руҳда ифодаланилгани кўзга яққол ташланади. Кетрин Менсфилднинг ижодида, айниқса, шеъриятида автобиографик элементлар тез-тез учрайди. “Ёлғизлик” шеърида ҳам шоиранинг шахсияти, ҳозирги руҳий ҳолати ва кайфияти акс эттирилади. Шеърда ёлғизлик жонли ҳодиса сифатида эътироф этилади. Шоира ёлғизлик билан курашмайди, аксинча, унинг келишини, тунда унга ҳамроҳ бўлишини хоҳлайди. Ёлғизлик муаллифни маҳв этган, у ёлғизлик олдида ожиз ва ҳимоясиз. Шеърда ифодаланишича, ёлғизлик тунда уйқунинг ўрнига ташриф буюради, чунки тунда инсон доимо яққа ва миясидан тушқун хаёлларни чиқариб ташлаши қийин. Шоира ҳеч нарсани ҳис қилмагандан кўра шу ёлғизликни, хафаликни ҳис қилганим яхши, дейди.

*Now it is Loneliness who comes at night
Instead of Sleep, to sit beside my bed.
Like a tired child I lie and wait her tread,
I watch her softly blowing out the light.
A strange wind flows... then silence. I am fain
To turn to Loneliness, to take her hand,
Cling to her, waiting, till the barren land
Fills with the dreadful monotone of rain.[9]*

Ушбу шеърда шоира ёлғизлик тушунчасининг асл моҳиятини очиш учун “weary, fought the fight, sad dark, ebbing tide, unsatisfied, fain, monotone of rain, dreadful” каби сўз ва бирикмалардан фойдаланган. Кетрин Менсфилд ёлғизликни табиат ҳодисалари билан уйғунликда тасвирлар экан, қаҳрамон ички ҳолатини очишга ҳаракат қилган.